

## **YOSH MATEMATIKA O'QITUVCHISINING DARSDAGI XATOLARI**

Bobonorova Yoqutxon Adham qizi

matematika fani o'qituvchisi

Telefon: +998934357573

### **Annotatsiya**

Quyida endigina ish faoliyatini boshlab turli kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan o'qituvchilarning ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan fikr va mulohazalar sinalgan uslublar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Dars jarayoni, matematika, tub sonlar, murakkab sonlar, "Eratosfen g'alviri"

"Matematika hamma fanlarga asos, bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvoffaqiyatli ishlab ketadi"

Sh.M.Mirziyoyev

Har bir yosh o'qituvchi o'z ish faoliyati davomida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Kimdir sabot bilan olg'a intilib bu qiyinchiliklarni yengib, o'tsa yana kimdir o'z yo'nalishini o'zgartirib to'g'ri yo'lidan og'ib ketadi.

Bir necha yillik ish tajribam shuni ko'rsatdiki, yosh matematika o'qituvchilari darslariga avval boshida katta qiziqish va zo'r kuch g'ayrat bilan yondoshadilar. Ammo, turli omillar natijasida, keyinchalik o'z faoliyatlarida sustkashliklarga, o'z bo'larchilikka va ish faoliyatiga o'tasov uqqonlikka yo'l qo'yishadi. Shu sababdan, bunday hollarda yosh matematika o'qituvchilariga qo'llanma sifatida shu haqida o'z shaxsiy fikrlarimni bayon etishga jazm etdim va bu o'z kasbdoshlarimga ko'mak bo'ladi deb o'ylayman.

### **1-XATOLIK: "HAMMA O'QUVCHI YAXSHI O'ZLASHTIRISHI SHART"**

**DEGAN FIKRDA BO'LISH.** Abatta, har bir o'qituvchi "yuz foizlik" natija ko'rsatishni xohlaydi va harakat qiladi. Biroq, "besh qo'l barobar emas" shunday ekan, qaysidir o'quvchi a'lo o'zlashtirsa qaysidiri qoniqarsiz, hatto, DTS ga javob bermaydigan o'quvchilar ham topiladi. Yosh o'qituvchi "men darsni yaxshi o'tyapman nega o'quvchim o'zlashtirolmayapti" degan fikrga borishi tabiiy. Shunday bolalarga dars mashg'ulotlarining ko'p qismini sarflashadi. Yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar esa bu davrda zerikib qolishadi. O'qituvchi yuklamasiga o'zlashtirishi past va o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan alohida ishslash ham kiradi. Lekin, yangi mavzu o'tilganda "sen shoshma to'garakda



o‘rgataman” deyolmaydi, albatta. “Hamma zo‘r o‘qishi kerak” degan fikridan qaytish. Jamiyat faqat matematika sohasidagi kishilardan iborat emas. Jamiyatga quruvchi ham, shifokor ham kerak. Har bir soha vakili uchun matematika fani kerak emas, shuni yosh o‘qituvchi tushunmaydi natijada, past o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga ko‘p tanbeh berib o‘zining ham o‘quvchining ham shashtini tushuradi. Maktabda o‘quvchi umumiylar ta’limni olishi zarur u zo‘r o‘qishi shart emas.

**2-XATOLIK: YANGI MAVZU BAYONIGA KO‘P VAQT AJRATISH.** Yosh o‘qituvchi Oliy ta’lim tizimidan endigina umumiy o‘rta ta’limga qadam qo‘yish munosabati bilan, hali unda Oliy ta’limning ba’zi xususiyatlari saqlanib qolninganligi uchun darsni ma’ruza darsiga aylantirib qo‘yadi. Bu o‘quvchilarda ko‘p ma’lumotni qabul qilmaslik bilan yakunlanadi. Bola darsda uzog‘i bilan 10-15 daqiqacha fikrini jamlab turoladi. O‘qituvchi ustomon bo‘lib shu vaqt ichida yangi mavzuni tushuntirib olsa, dars davomida o‘zi ham bola ham qiyalmashdan darsdagi barcha vazifalarga ulguradilar. Bunda aniq reja asosida har bir vaziyatga kerakli vaqtini belgilab olish zarur.

**3-XATOLIK: DARSNI VAQTIDA YAKUNLAMASLIK.** O‘qituvchi har bir soatlik darsni rejalshtirib 45 daqiqaga mo‘ljallab oladi. Ammo, yosh o‘qituvchilarda ko‘p hollarda tanaffusga qo‘ng‘iroq bo‘lgandan so‘ng, uy vazifasini berishni boshlashadi. O‘quvchi keyingi darsga tayyorlanishi kerak, miyasi biroz chalg‘imasa o‘zlashtirishi tushib ma’lumotlarni yaxshi qabul qilolmaydi.

**4-XATOLIK: O‘QUVCHIGA UYGA TOPSHIRIQNI KO‘P BERISH.** 2-xatolikka yo‘l qo‘ygan o‘qituvchi albatta bu xatoni qiladi. Dars davomida yechilishi zarur bo‘lgan topshiriqlarni bajarishga ulgurmuydi. Bu vazifalarni ham qo‘shib uyga topshiriq qilib beradi. Natijada, o‘quvchilar barcha topshiriqlarni bajarish jarayonida aqlan zo‘riqib fandan soviy boshlaydi.

**5-XATOLIK: DARS DAVOMIDA UYGA VAZIFANI TEKSHIRISHGA ULGURMASLIK.** Vaqt taqsimotida birgina xato qilinsa yosh o‘qituvchi dars jarayonini uyga vazifa tekshirilishi kerak bo‘lgan qismi orqali “to‘ldirish” bilan xatosini tuzatadi. O‘quvchi uyida “ter to‘kib” bajarib kelgan uyga vazifasi tekshirilib e’tirof etilmagach keyingi uyga vazifalarni bajarishni xohlamasligi tabiiy holdir.



Ish bor joyda kamchilik bo‘lishi aniq. Lekin haqiqiy ma’suliyatli kadr o‘z ustida ishlaydi va sekin astalik bilan bu xatolarni to‘g‘irlashni udasidan chiqadi. O‘qituvchi kasbi sharaflı shu bilan birga mashaqtli kasbdir. Qiyin taraflaridan biri har bir bola psixologiyasiga, xarakteriga qarab muomala qilish, ularga matonat bilan ta’lim berishi darkordir. O‘qituvchi agar ko‘zlagan maqsadiga erisholmasa shashti pasayishi, dars jarayonida turli xatoliklarga duch kelishi va hatto, o‘z tanlagan kasbidan norozi bo‘lishgacha boradi

Matematika fani abstrakt fan bo‘lib, uning predmetlarini o‘zlashtirishda bevosita tafakkurga tayanish orqali tushununchalar hosil qilinadi. Yuqorida sanab o‘tgan xatoliklarga quyidagicha ish faoliyatimda ortirgan tajriba va dars davomida olib borgan eksperimentlarimga tayanib bir dars misolida yechimlarni taqdim etaman.

Dars mavzusi: Tub va murakkab sonlar

Maqsadlar / o‘quv natijalari	Maqsadlarga erishishni tekshirish rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar
Tub va murakkab sonlarni bir-biridan ajrata bilish	“Aqliy hujum” metodi orqali tekshiruvchi savol-javoblar orqali
Tub ham murakkab ham bo‘lmagan son tushunchasi	Ta’rifni o‘rganganlik darajasiga ko‘ra
Sonni tub yoki murakkabligini aniqlash	Darsda topshiriqlar bajarib ko‘rish orqali
“Eratosfen g‘alviri” nima ekanligi	Berilgan son tub yoki murakkabligini aniqlay bilish uchun qo‘llay ola bilishi
Topshiriq bajarish ko‘nikmasi	Misollarni hal qilolishi

Uskunalar: video proektor, BBB texnologiyasi, “Aqliy hujum” texnologiyasi

Darsning bosqichlari	O‘qituvchining faoliyati. Ta’lim va rivojlanish komponentlari, vazifalar va mashqlar	O‘quvchilar faoliyati. Sinfda o‘zaro munosabatlarni tashkil etish shakllari	Ishlatilgan resurslar	Metodlar va baholash usullari
1. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning tajriba va bilimlarini yangilash	Mavzuga doir ma‘lumotlarni berish: tub sonlar deb o‘ziga bo‘linadigan sonlarga aytildi misol:11,13,17,... . O‘zi va birdan boshqa bo‘luvchisi bor sonlar murakkab sonlar deyiladi.M:4,6,18,... 1-tub ham emas murakkab ham emas chunki uning bo‘luvchisi ham 1 o‘zi ham 1. Uft sonlar ichida faqat 2 tubdir. “eratosfen g‘alviri”-bu tubsonni	Dialog, suhbat.	Tarqatma materiall, video proektor	BBB texnologiyasi



	aniqlash uchun qo'llaniladigan eng sodda usullardan biridir. Bunda berilgan songacha bo'lgan sonlarni yozib chiqamiz so'ngra murakkablarini o'chirib chiqamiz (18 daqiqa)			
2. Yangi ma'lumotlar bilan ishlash	O'quvchilarga mavzuga doir qisqa savollar berish va BBB texnoloiyasini oxiriga yetkazish (10 daq.)	Savollarga javob berish BBB texnoloiyasini o'qib berish	Slayd namoyishi	"Aqliy hujum" va BBB texnoloiyasini yakuniga ko'ra muntazam qatnashganlarni belgilash
3. Tajriba	Misollar ko'rsatish (12daq.)	Doskada misollar bajarish	Doska, bo'r, darslik	Faollarni belgilab borish
4. Reflekslar	Sonlarni tub va murakkabligini tekshira olishligi	Hozirjavoblik, sonlarni tub va murakkabligini aniqlay olish, mustaqil fikrlash, o'z ustida mustaqil ishlash	Slayd namoyishi	Dars davomidagi ishtirokiga ko'ra baholash
5. Uyga vazifa	Darslikdagi topshriqlar (2 daq.)	Daftarga yozib olish		Og'zaki



Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, hech bir sabab pedagogni o'z ish faoliyatiga sovuqqonlik bilan yondashishiga sabab bo'lmasligi kerak. Xalqimizda "ustoz otangdan ulug'" degan gap yuradi, har bir o'qituvchi shunga munosib bo'lmog'i darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Matematika 6. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. T. 2022
2. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot". – T.: "Fan", 2005.
3. Sayidahmedov N."Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya". – T.: 2003.
4. R. N. Nazarov, B. T. Toshpo'latov, A. D. Dusumbetov. Algebra va sonlar nazariyasi II-qism. O'qituvchi' 1995.